

GRADUONIMIYA BILAN YONDOSH LEKSIK-SEMANTIK MUNOSABATLAR

Toshqulova Zebiniso Baxriddin qizi

Termiz davlat pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi
 toshqulovazebiniso171@gmail.com <https://orcid.org/0009-0004-8114-7000>

Musurmonqulov Adham Abdurashid o'g'li

Termiz davlat pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi
 adhammusurmonqulov76@gmail.com <https://orcid.org/0009-0005-7109-8265>

Annotatsiya: Ma'lumki, leksik-semantik munosabatlar tizimini o'rganishga bo'lgan qiziqish avvaldan mavjud bo'lgan. Tilshunoslik borasida dastlabki ilmiy, nazariy yondashuvlarni olib borgan hududlar: qadimgi hind, yunon, arab tilshunoslik olamida umuman so'zning mazmuni haqida, uning nomi bilan bog'liqligi borasida munozaralar kechgan. Jumladan, qadimgi yunonlarda tilshunoslik dastlab faylasuflar tomonidan ochib berilgan. Shu boisdan tilshunoslikning falsafiy hamda grammatik davri amal qilgan. So'z haqida umumiy qarash paydo bo'lgach uning vazifalari, ma'nolari ko'lamida tilshunoslik jihatdan tadqiq etilib kelindi.

Tadqiqot ishimizga qaratilgan so'z va uning ma'noviy munosabatlari ham o'rganilishi kerak bo'lgan ishlardir. So'zlararo ma'noviy munosabatlarni o'rganish dastlab sinonimiya hamda antonimiya doirasida o'rganildi. Qolgan munosabat shakllari ikkita tomon (sinonimiya va antonimiya) doirasida tadqiq etildi. Fan haqidagi tasavvurlar, ilmlar boyib borishi bilan boshqa munosabat shakllarini ochiqlashga erishildi. Gipo-giperonimiya, iyerarxionimiya, funksionimiya, partonimiya, graduonimiya kabi munosabatlar shular jumlasidandir. Biz uchun tadqiq etilishi lozim bo'lgan graduonimiya hodisasining boshqa yondosh hodisalar bilan munosabati, vazifasi, til doirasidagi ahamiyatli tomoni nimalarda ekanligini aniqlashdan iboratdir.

Ushbu maqolada tilshunoslik doirasida leksik-semantik munosabatlar haqida atroflicha fikr-mulohazalar keltirilgan. Shuningdek, so'zlararo ma'noviy munosabatlardan graduonimik munosabat haqida yoritilgan. Bu munosabatning boshqa yondosh hodisalar bilan o'xshash hamda farqli tomonlari haqida nazariy fikr yuritilgan.

Kalit so'z: Leksik-semantik birliklar, sistemaviylik, paradigmatic munosabat, lisoniy darajalanish, graduonimiya, giponimiya, sinonimiya, funksionimiya, iyerarxionimiya.

Tilda leksemalar orasida turli xil munosabatlar amal qiladi. Ba'zi munosabatlar ichki ma'no doirasida bo'lsa, boshqalari orasida shakliy munosabatlar mavjud. Shu boisdan leksemalararo munosabatlarni ikkiga ajratish mumkin: leksik-semantik munosabatlar hamda leksik-shakliy munosabatlardir. Leksik-semantik munosabat deganda leksemalarning o'zaro ma'no asosidagi o'xshashlik va farqlari tushunilsa, leksik-shakliy munosabat sifatida leksemalarning o'zaro shakl asosidagi o'xshashlik va farqlari e'tiborga olinadi.

O'zbek tili lug'at boyligini lug'aviy ma'nolarga ajratishning o'zi til leksik qatlamlarining sistem xarakterga ega ekanligidan dalolat beradi. Inson lisoniy olamida u ifodalamoqchi bo'lgan nutqiy birliklarning turlicha ma'nolari sistema sifatida tiziladi.

“Lisoniy soʻz semalarining denotativ (atash), konnotativ (ifoda), funksional (vazifa) maʼnolari ajratib olinganida darajalanish tizimida ham biz ularni alohida oʻrganib tadqiq etishimiz zarur. Bu turdagi darajalanishlar tahlilda denotatlarning (borliq, ekstralingvistik omillarning) xususiyatlari valugʻaviy birliklarning semantik belgilari uzviy bogʻliqlikda talqin etiladi” (O.Bazarov, 1997: 27). Leksemalarni lugʻaviy maʼnoviy guruhlariga ajratish va ular orasidagi oʻzaro maʼnoviy munosabatlarni tadqiq etish leksikologiya hamda semasiologiya boʻlimlariga xos boʻlgan tadqiqotdir. Soʻzlararo maʼnoviy munosabatlarda boshqa hodisalar ham shu ikkisining tarkibida qaralib kelingan. Soʻzlarga leksik-semantik yondashuv keyinchalik boshqa lugʻaviy guruhlarini ham farqlashga yoʻl ochgan. Oʻzbek tilshunosligida gipo-giperonimik hodisalarning uy hayvonlari misolidagi tadqiqi R.Safarovning nomi bilan bogʻliqdir. R.Safarova lugʻaviy maʼnoviy guruhlarda sinonimik, antonimik, giponimik, polisemantik munosabatlarga emas, balki funksionimik (vazifadoshlik), partonimik (butun-boʻlak), iyerarxonimik (pogʻonaviylik), graduonimik (darajalanish) munosabatlar mavjudligini taʼkidlagan.

Soʻzlararo maʼnoviy munosabatlarda graduonimik jarayonlar alohida hodisa sifatida tilshunosligimizda tadqiq qilina boshlanguncha sinonimik jarayonlar tarkibida uzoq yillar davomida oʻrganilib kelingan. Lugʻaviy soʻzning maʼnolari judayam kengdir: sinonimik, antonimik, graduonimik (maʼnoviy darajalanish), partonimik (butun-boʻlak), funksionimik (vazifadoshlik), iyerarxonimik (pogʻona, katta-kichiklik) va gipo-giperonimlarni sanab oʻtishimiz muhimdir. Bu hodisalar bir-biri bilan bevosita aloqador boʻlgan leksik-semantik tizim sanaladi.

Partonimiya atamasi ostida soʻz semalari orasida oʻzaro butun-boʻlak munosabati mavjud boʻladi. Daraxt misolida koʻrib chiqadigan boʻlsak, undagi ildiz, navda, barglar, shox, mevasi daraxtning partativ qismini tashkil etadi. Funksionimiya atamasi ostida denotatlarning bir xil vazifa bajarganlik semasi orqali birga anglanishi nazarda tutiladi.

Masalan, ot, eshak, tuya zoonimlari ulov vazifaviylik jihatidan; qalam, ruchka, chizgʻich, boʻr (yozuv doskasiga yozish maqsadida qoʻllaniladigan ohak qotishma)larni funksiyadoshlik jihatdan birlashtirish mumkin. Iyerarxik (pogʻonaviylik) jihatdan uy leksemasining tarkibiy qismida fundamenti, devori, poli, romi, tom qismi inson lisoniy olamida pogʻonali tarzda aks etadi va bu soʻzlar uy leksemasi bilan bogʻlanib maʼnoviy munosabatining tarkibini tashkil etadi.

Maʼlumki, bu kabi soʻzlar orasidagi maʼnoviy munosabatlarga alohida qaralib kelinmadi. Xususan, partonimiya giponimiyaning bir turi sifatida qaralgan. Graduonimiya ham sinonimiya tarkibida boʻlib, keyinchalik gipo-giperonimiya bilan farqlanmagan. Bugungi kunda ham ularning orasini farqlash qiyinchilik tugʻdiradi. “Graduonimiya giponimiya bilan chambarchas bogʻlanib hatto baʼzan qorishib ham ketadi: bola, ninni, chaqaloq, goʻdak.

Bu qatordagi soʻzlar bir qaraganda goʻyo bola giperonimi ostida birlashgandek koʻrinsa ham bola, ninni, chaqaloq, goʻdak soʻzlari bilan gul, rayhon, lola, atirgul soʻzlari orasidagi semantik aloqalar bir-biridan farq qiladi. Mana shu oʻziga xoslik bu lugʻaviy paradigmalarning har biriga alohida-alohida yondashishni taqozo etadi” (R.Safarova, 1996: 21). Bu yerda gul giperonimi darajalanuvchi bola soʻzi bilan bir xil pozitsiyada turgandek

o'xshashlikni keltirib chiqaradi, lekin lola, atirgul, rayhon gul jinsining giponimlari hisoblanadi. Shuningdek, ninni, chaqaloq, go'dak so'zlari ham bola so'zining darajalanish qurshovini tashkil etadi.

Graduonimik so'zlarda lug'aviy birliklar orasida dominanta (yetakchi) so'z inson lisoniy xotirasida mavjud bo'lib yashaydi. Chunki, yetakchi birlik qo'llangandagina qolgan darajalovchi birliklar vaziyat nuqtayi nazaridan eslanadi. Bu jihatdan graduonimiya sinonimiya hodisasiga o'xshab ketadi. Sinonim so'zlar qurshovida ham dominanta so'z mavjud bo'ladi.

Inson lisoniy olamida ham ana o'sha so'z qolgan lisoniy birliklarni chaqiruvchi signal vazifasini bajaradi. Bundan tashqari graduonimik hamda sinonimik so'zlardagi ma'noviy ifodasini neytrallashgan, faollashgan lug'aviy birlikka aylangan bo'lishi bilan ham keltirishimiz mumkin.

Masalan, sinonimlar doirasida turq, bashara, aft, bet – yuz – chehra, jamol, oraz so'zlari ma'noviy munosabatidan yuz so'zida salbiy va ijobiy ottenko ma'nolarni o'zida birlashtirgan, yaxlitlashtirgan dominanta so'z sifatida qaraymiz. Darajalanuvchi so'zlar orasida esa gulobi, pushti, qizg'ish – qizil – ol, qirmizi so'zlari misolida qizil so'zini ajratib ko'rsata olamiz. Buni matematikaga oid koordinata o'qlari misolida so'zlarni joylashtirib ko'rishimiz ham mumkin bo'ladi.

Sinonimlar doirasidagi salbiy ma'noga ega bo'lgan so'zlarni noldan past minus darajada joylashtirish va graduonimik so'zlarda denotat ma'nosi oz bo'lgan so'zlarni minusdan nolgacha joylash, yuz sinonimik so'zini va qizil graduonimik so'zini nol o'rnida qo'llasak bo'ladi. Graduonimiya, sinonimiya va boshqa qolgan so'zlararo ma'noviy munosabatlarni ham paradigmatic munosabatlar doirasida tasnif qilishimiz mumkin. Paradigma a'zolaridan biri eslanganda qolganlari ham yodga olinadi.

Graduonimiya hodisasi uy hayvonlaridan sigir, ot, qo'y, tuya nomlarini ifodalashda ham ularning yoshiga qarab farqlangan. Masalan, qoramol: buzoq, tana, g'unajin, sigir; ot: qulun, toy, g'o'non, do'lon, to'lon kabi. "Mahalliy aholining kundalik ijtimoiy hayotida va turmush tarzida uy hayvonlari katta o'rinni egallaydi, shuning uchun ham uy hayvonlarining farqli tomonlari ulardan har birining farqini yaxshi ajratish hamda nomlash natijasida bu denotatlarning har biri o'sish darajasiga ko'ra farqlanadi" (R.Safarova, 1996: 27). Graduonimik so'zlarning bunday tasniflanishi, giponim so'zlarning har biri alohida jamlanib giperonimni yuzaga keltirishiga o'xshash hodisa sanaladi. Baliq giperonimida uning giponim turlari bo'lgan laqqa, sazan, ilonbaliq kabi tasniflanishi o'xshash hodisa bo'lsa-da, ular bir-biridan farqlanadi.

Zoonimlar doirasida, asosan, inson bilan yonma-yon yashaydigan, unga xizmat qiladigan hayvonlar nomi darajasida farqlanadi. Bu kabi nomlar, albatta, tilshunoslik doirasida leksik-semantik tahlilga tortadi.

"Predmet ma'lum belgilar majmuasi sifatida yuzaga chiqadi va otlarda belgi ma'nosi ularning ma'no tarkibining muhim tarkibiy qismidir. Shuning uchun o'zbek tilida ko'pchilik muayyan (konkret) otlar va bir qator mavhum otlar graduonimik qatorlar tashkil qiladi" (Sh.Orifjonova, 1996: 21). Ot turkumi darajalanish sistemasining asosini tashkil qiladi. Narsa-predmet nomlari, asosan, darajalanish xususiyatiga egadir. Inson lisoniy olamida ot

turkumiga oid birliklarning zid ma'no oralig'idagi tushunchalari o'z nomiga ega bo'lmasada, lisonda mavjud bo'ladi. Sifatlar doirasida o'zaro antonimik munosabatda bo'lgan so'zlarning oralig'ida ham daraja, o'sib borish qonuniyati mavjud bo'ladi. Zid ma'noli so'zlar orasiga o'rta so'zini qo'llab graduonimik tizimga aylantirish mumkin bo'ladi. Masalan, katta – o'rta – kichik, baland – o'rta – past, yosh – o'rta – qari kabilar. Insonning yoshi nuqtayi nazaridan qaraganda yosh va qari orasida ham navqironlik, yetuklik, hayotiy qiyinchiliklardan qotgan shaxs tushunchalari ham o'rta so'zining tarkibiga joylashmoqda. Yosh va qari zid ma'noda olinsada, inson go'daklik, yoshlik, navqironlik, yetuklik, munkayganlik, qarilik holatini darajalanish bosqichiga kiritamiz. Ya'ni graduonimik tizim deb nomlaymiz.

Bunday lug'aviy darajalanish tizimi boshqa so'z turkumlari olmosh, ravish, taqlidiy so'z, modal so'zlarda ham uchraydi. Xususan, ot so'z turkumi doirasida graduonimik darajalanish juda ham ko'p uchraydi. Lisoniy shaxs nutqida so'zlararo ma'noviy munosabatlarning barchasi aks etishi uning bevosita kognitalogiyasi bilan ham bog'liq hodisa sanaladi. Chunki, nutq vaziyatida uning tilga oid asoslangan bilimi rol o'ynaydi. Lisoniy olami keng bo'lgan shaxs o'z nutqini aniq, tugal, maqsadli yo'naltira oladi. Bunda til haqidagi bilimi orqali ochib beradi.

So'zlovchi shaxs lisoniy olamida tilga xos bo'lgan leksik-semantik munosabatlarning o'rni ahamiyatlidir. Bundan yaxshigina xabardor bo'lsa, maqsadga muvofiqdir. Jamiyat a'zolari turli toifa sinf vakillari orasidagi muloqot nutqida leksik-semantik munosabatlar tizimiga har doim ham amal qilinavermaydi. Masalan, qizilga yaqin pushti rangni aytish uchun och qizil yoki sal qizil deb ham qo'llash mumkin. Ravishning ozaytirma shakli orqali ifodalanish holati aks etadi va buni nutqiy xatolik sifatida qaray olmaymiz. Qanday so'zlash, so'zlarning lug'aviy ma'nolaridan qay tarzda foydalanish nutqiy shaxsning til bilimiga bog'liqdir.

ADABIYOTLAR:

1. Базаров О. Ўзбек тилида даражаланиш. Филол. фан. док. (DSc)...дисс. автореф. – Тошкент, 1997. – 51 б.
2. Орифжонова Ш., Ўзбек тилида луғавий градуонимия. Филол. фан. номз.. дисс. автореф. – Тошкент, 1996. – 28 б.
3. Сафарова Р., Лекск-семантик муносабатларнинг турлари. Қўлланма – Тошкент, Ўқитувчи, 1996. – 47 б.